

Alifboli yozuvning vujudga kelishi haqidagi ba'zi mulohazalar

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

“Tarixshunoslik va tarixiy tadqiqot metodlari” yo‘nalishi

II kurs magistranti Karimov Nodir.

Annotatsiya

Mazkur maqola Alifboli yozuvning vujudga kelishi haqidagi ba'zi mulohazalar deb nomlangan va unda qadimda iste'molda bo'lgan yoki bugungi kunda ham foydalanilayotgan 95% alifbolarning asl o'zagi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qadimgi finikiya yozuvi asosida shakllanganligi, ulardagi alifbo tartibi ham shu yozuv sabab bo'lgan deyish mumkinligi, faqatgina chapdan o'ngga yoki o'ngdan chapga qarab xat bitilganda yoki ba'zi xalqlarda harfni ishlatish uchun zarurat bo'lmaganda, ayrim hollarda esa o'zlarida mavjud bo'lgan tovushni ifodalash uchun ulardan yangi harflarni yaratishgan bo'lsa-da, ammo asl o'zak asrlar osha saqlanib kelinganligi bayon qilingan.

Yozuv insoniyat yaratgan buyuk kashfiyotlar qatorida alohida o'rin tutadi. Yozuv bo'lmaganda kishilik tarixi cheksiz-chegarasiz zamon oqimlarida lahzalik, oniy va albatta unutilishga mahkum hodisa bo'lib qolar edi. Ayni yozuv insoniyat to'plagan bilim va tajribalarni, hayot ibratlarini masofa hamda zamonlar osha uzatish vositasi sifatida beqiyos ahamiyat kasb etib kelmoqda¹.

Ammo yozuvning kelib chiqishi, har bir alifbolardagi harflar ma'nosi va asosi hammamizni bugun biroz fikrlashga chorlaydi. Ba'zida esa dunyodagi ko'plab

¹ Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры . Тошкент. 2008. С. 5-21.

alifbolar ABC yoki KLMN tartibida zamonlar osha ajdodlardan keyingi avlodlarga yetib kelish sababini bilishga qiziqish holatlariga duch kelishimiz mumkin. Quyidagi tadqiqot ishimizda imkon qadar har bir harflarga to'xtalib, ularning vujudga kelishi asoslari va ular haqidagi ba'zi taxminiy fikrlarni o'rganib, uzoq davr mobaynida shakllangan alifbolarga izoh beramiz.

Yozuv madaniyatining ilk bosqichlari inson fikrini tasvir orqali, suratlar shaklida ifoda etishdek sodda va ibtidoiy holatda bo'lgan. Bu xususiyat yozuv tarixida ming yillar davomida kuzatiladi². Jumladan, Misrning qadimgi iyeroglif yozuvi, qadimgi Hindistonda topilgan ilk davr yozuv yodgorliklari, Mezoamerika "hindu" qabilalari kashf etgan yozuvlar, ba'zi Afrika qabilalarida uchraydigan surat – voqiyanomalar kabilarda mavjud.

Alifboli yozuvning vujudga kelishi esa mill.avv II ming yillikga to'g'ri keladi³. Deyarli, dunyodagi barcha alifboli yozuvlarning asosi bevosita yoki bilvosita semitik proto-Alifboga borib taqaladi. Bugungi kunda ko'pchilik olimlarning fikricha, bu alifbo ham qadimgi Misr iyerogliflari asosida shakllangan. Semit yozuvlarini o'zlashtirgan finikiyaliklar va oromiylar mill.avv I ming yillikda uni butun yer yuziga tarqalishiga sabab bo'lgan. Shu sababli semit alifbosi O'rta Sharq, Yevropa, shimoliy Afrika va Janubiy Osiyoda shakllangan yozuvlarning ajdodi hisoblanadi.

Bugungi kunda ba'zi olimlar semitik yozuv asosida shakllangan alifbolarni juda kichkina farqlar bilan ikki guruhga bo'ladi: "abjadlar" va "to'g'ri alifbolar". "To'g'ri alifbolar"da unli va undosh harflar bir-xil ifodalansa, "abjad"larda har bir belgi faqat undoshlarni aks ettiradi. Finikiya alifbosidan

² Millard A. R. The Infancy of the Alphabet. World Archaeology . 1986. pp. 390–398.

³ Maxmudov N. Yozuv tarixidan qisqacha ma'lumotnoma. T., 1990. 7-b.

kelib chiqqan yunon yozuvi ilk “to‘g‘ri alifbo” hisoblanadi⁴. Yunonlar yozuvi asosida shakllangan Lotin alifbosi butun dunyoda keng qo‘llaniladi.

Quyida lotin alifbosidagi harflarning kelib chiqishini o‘rganib, ularning shakllanish asoslariga nazar tashlaymiz:

-“**A**” buqaning boshidan kelib chiqqan bo‘lib( - ) keyinchalik yunonlar va rimliklar bugungi “A” tarzida qo‘llay boshlagan.

-“**B**” qamishli uy suratini anglatgan( - ), yunonlarda (**Beta**) B, rimliklarda esa “**B**”.

-“**G**” bumerang(uloqtiriladigan o‘roqsimon tayoq) ( - )ni eslatgan, yunonlar uni **gamma** (Γ) deb atagan bo‘lsa, etrusk qabilalarida “g” tovushi bo‘lmaganli sababli undan “k” harfini talaffuz qilishda foydalangan, rimliklarga esa “C” tarzida o‘tib, ozgina o‘zgartirib “**G**” vazifasida ham ishlatilgan⁵.

-“**D**” baliq( - ),yunonlarda delta (Δ), va rimliklarda esa “D” harfi sifatida foydalanilgan.

-“**E**” qo‘llari ko‘tarilgan, baqirayotgan yoki iltijo qilayotgan odam qiyofasini eslatadi( - ), yunonlarda u **epsilon** (Ε) va Rimda “**E**” tarzida shakllandi.

- “**W**” tuzoq yoki to‘qmoq ( - )ni aks ettirgan bo‘lishi mumkin. Yunonlar esa undan F- digamma ya’ni 6 raqamini ifodalash uchun foydalangan. Etrusk qabilalarida v tovushini ifoda etish uchun ishlatilgan, Rimliklar **F** sifatida talaffuz qilgan. Yunonlarda ikkinchi shakli **upsilon** (Υ) ham mavjud bo‘lib, alifboning oxirida qo‘llanilgan. Rimliklar upsilondan “**V**” ni talaffuzida

⁴ Robinson A. The Story of Writing: Alphabets, Hieroglyphs & Pictograms, New York: Thames & Hudson Ltd. 1995. P. 170.

⁵ Ullman B.L. "The Origin and Development of the Alphabet," American Journal of Archaeology 31, No. 3. 1927. Pp. 311-328.

qo'llanishi bilan birga, keyinchalik "U" ni ham ifoda etgan. VII asrda esa Angliyada W -- "dabl –yu ya'ni ikkita u" tarzida isloh qilingan⁶.

"Z" qadimda **qilich yoki qurol** (𐤆 - 𐤇)ni ifoda etish uchun ishlatilgan, yunonlar u bilan **zeta** (Z)ni rimliklar esa "Z" harfini hosil qilib, alifbolarining so'nggiga joylashtirgan.

- "H" qadimgi to'siq (𐤇 - 𐤈) ma'nosini anglatgan bo'lishi mumkin. Yunonlar undan **eta** (H), rimliklar **H** harfi sifatida foydalangan.

- "I va J" qadimda butun qo'lni (𐤇 - 𐤈) ifodalash uchun ishlatilib, yunonlar osonlashtirib **iota** (I) vazifasida va rimliklar esa **I** harfi uchun foydalangan. Keyinchalik isloh qilib undan **J** harfini ham chiqarib olishgan.

- "K" qadimda kaft yoki hovuch (𐤇 - 𐤈)ni ifodalagan bo'lishi mumkin, yunonlarda **kappa** (K), rimliklarda "K" tarzida qo'llanilgan.

- "L" qadimda buqa dumi (𐤇 - 𐤈)ni aks ettirish uchun ishlatilgan bo'lishi mumkin. Buni yunonlar **lambda** (Λ) va rimliklar "L" tarzida o'zlashtirgan.

- "M" qadimda suv (𐤇 - 𐤈)ni ifodalagan bo'lsa, yunonlarda **mu** (M) va rimliklarda "M" tarzida saqlangan.

- "N" kelib chiqishiga ko'ra ilon yoki ilon baliq (𐤇 - 𐤈) ni ifoda etgan bo'lib, yunonlar undan **nu** (N)ni, rimliklar "N" harfini yaratgan.

- "X" kelib chiqishi noma'lum, bir necha ustunli ponaga o'xshash bo'lgan (𐤇) bu belgi Misrdagi ko'plab g'orlardan topilgan bo'lib, yunonlar u bilan **xi** (Ξ), keyinchalik osonlashtirib **chi** (X) ham ifoda etishgan. Rimliklar esa faqatgina "X" sifatida o'zlariga qabul qilgan.

⁶ Тайны древних письмен «ПРОГРЕСС» МОСКВА 1979. С. 23-67.

-“O” qadimgi Misrda koʻz ( - ) ni ifoda etgan boʻlib, yunonlar alifbosida omikron (O) tarzida isloh qilinib, oʻz alifbolarining soʻnggi harfi sifatida eʼtirof etishadi. Rimliklar ham hech oʻzgarishlarsiz “O” tarzida qabul qilgan⁷.

-“P” qadimgi finikiya alifbosida ogʻiz yoki burchak ( - )ni eslatib, yunonlar u bilan **pi** (Π)ni, rimliklar esa biroz burchagini qayirib “P” ni shakllantirgan.

-“Q” qadimgi xalqlarda tugunni eslatadi ( - ), u dastlab k harfiga oʻxshash talaffuz qilinib, ogʻizni biroz ichkarirogʻida shakllangan. Yunonlar u bilan 90 (Q) raqamini ifoda etgan boʻlib, etrusk va rimliklar “Q” harfi sifatida foydalangan⁸.

-“R” qadimda bosh soʻzidan kelib chiqqan boʻlishi mumkin( - ). Yunonlar bu harfdan **rho** (P)ni va rimliklar “p” harfidan farq qilishi uchun tayoqcha qoʻshib “R” belgisini shakllantirgan.

-“Sh” kelib chiqishi kamon( - ) shaklidan boʻlishi mumkin. Garchi dastlab bu belgi sh tarzida talaffuz qilinsa-da, yunonlar u bilan **sigma** (Σ) ifodalashgan. Rimliklar oʻzgartirib bugungi “S” harfini yaratgan.

-“T” qadimda shunchaki belgi( - ) sifatida foydalanigan boʻlishi mumkin. Yunonlar undan tau (T) belgisini yaratgan va rimliklarga ham shu

⁷ Robert K. L. The Alphabet Effect: The Impact of the Phonetic Alphabet on the Development of Western Civilization, New York: William Morrow and Company. 1986. Pp.45-67.

⁸ McCarter P. K. “The Early Diffusion of the Alphabet.” The Biblical Archaeologist 37, No. 3 1974. Pp. 54-68.

tarzda o'tgan. Yuqorida qavslarda keltirilgan ikkinchi harflar 22 belgidan iborat bo'lgan finikiy alifbodir⁹.

𐤀 𐤁 𐤂 𐤃 𐤄 𐤅 𐤆 𐤇 𐤈 𐤉 𐤊 𐤋 𐤌 𐤍 𐤎 𐤏 𐤐 𐤑 𐤒 𐤓 𐤔 𐤕 𐤖 𐤗 𐤘 𐤙 𐤚 𐤛 𐤜 𐤝 𐤞 𐤟 𐤠 𐤡 𐤢 𐤣 𐤤 𐤥 𐤦 𐤧 𐤨 𐤩 𐤪 𐤫 𐤬 𐤭 𐤮 𐤯 𐤰 𐤱 𐤲 𐤳 𐤴 𐤵 𐤶 𐤷 𐤸 𐤹 𐤺 𐤻 𐤼 𐤽 𐤾 𐤿

Quyidagi jadvalda finikiy alifbosidan shakllangan yunon (mill.avv IX, yozuv yo'nalishi o'ngdan chapga), etrusk(mill.avv 650, yozuv yo'nalishi o'ngdan chapga), lotin (mill.avv 500, yozuv chapdan o'ngga), lotin alifbosining o'rta asrlardagi ikkinchi bosqichi, oxirgi qatorda esa yevropaliklar tomonidan kiritilgan ba'zi o'zgarishlarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Finikiy	𐤀 𐤁 𐤂 𐤃 𐤄 𐤅 𐤆 𐤇 𐤈 𐤉 𐤊 𐤋 𐤌 𐤍 𐤎 𐤏 𐤐 𐤑 𐤒 𐤓 𐤔 𐤕 𐤖 𐤗 𐤘 𐤙 𐤚 𐤛 𐤜 𐤝 𐤞 𐤟 𐤠 𐤡 𐤢 𐤣 𐤤 𐤥 𐤦 𐤧 𐤨 𐤩 𐤪 𐤫 𐤬 𐤭 𐤮 𐤯 𐤰 𐤱 𐤲 𐤳 𐤴 𐤵 𐤶 𐤷 𐤸 𐤹 𐤺 𐤻 𐤼 𐤽 𐤾 𐤿
Yunon	Α Β Γ Δ Ε Ζ Η Θ Ι Κ Λ Μ Ν Ξ Ο Π Ρ Σ Τ Υ Φ Χ Ψ
Etrusk	A B C D E F G H I K L M N O P Q R S T Y Φ X Y
Lotin I	A B C D E F G H I K L M N O P Q R S T V X
Lotin (O'rta asrlar)	A B C D E F G H I K L M N O P Q R S T V X Y Z
Ba'zi o'zgarishlar	À Ç Ð É Î Ñ Ò Ó Ô Õ Ö × Ø Ù Ú Û Ü Ý Þ ß à á â ã

10

Alifboning ABC tarzida shakllanish tartibi qancha vaqt o'tmasin bir xil o'zgarmay kelyapti. Albatta, yuqorida keltirganimdek ba'zi moslashtirish va qo'shimcha kiritish mavjud bo'lsa-da, ammo asl o'zak hech o'zgarmagan. Masalan: 1920 yilda arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimgi Ugarit (hozirgi Suriya) davlati o'rnidan ko'plab yozuv yodgorliklari topiladi. Bu yozuvning asosi esa Finikiy va Yahudiy alibolari bo'lganligi sababli undagi harflar ketma-

⁹ Joseph N. Early History of the Alphabet: an Introduction to West Semitic Epigraphy and Palaeography. Magnes Press – Hebrew University. Jerusalem. 1982. Pp. 78-79.

¹⁰ Jadval muallif tomonidan shakllantirildi.

ketligi *a, b...g, h...l, m...q,r* shaklida edi¹¹. Lekin shu bugungacha qadimgi ajdodlarimiz nima uchun shu tarzda tartibni tanlagani hozirgacha baxsli masala bo'lib kelmoqda. Qadimgi misrliklar o'z iyerogliflarida shu tartibni qo'llagani uchun, keyin o'zlashtirgan xalqlar ham o'z alifbolarini shu tarzda shakllantirgan bo'lishi mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan jihat esa ABC yoki KLMN tartibini yaratib uni butun dunyoga tarqatgan xalqlar finikiyaliklardir. Markaziy Osiyodagi qadimgi yozuvlarning asosi bevosita qadimgi oromiy yozuvidan shakllangan. Oromiy qabilalari esa o'zlarining yozuvlarini mil.avv. I ming yillikning boshlarida finikiyaliklardan olgan edilar. Oromiy yozuvi xuddi finikiyaliklarnikiga o'xshab 22 undosh harfdan iborat bo'lgan. Finikiya alifbosining oromiy tilida qayd qilinishiga moslashuvi unchalik qiyinchilikka uchramagan. Chunki oromiy alifbosi finikiya alifbosiga yaqin bo'lganligi ya'ni bu tillarning tovushlarni aks etishi bir-biriga yaqin bo'lganlidadir. Oromiydan esa ba'zi o'zgarishlar bilan so'g'd, bixtariy, parfiyoniy, xorazmiy, uyg'ur va boshqa yozuvlar vujudga kelgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qadimda iste'molda bo'lgan yoki bugungi kunda ham foydalanilayotgan 95% alifbolarning asl o'zagi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qadimgi finikiya yozuvi asosida shakllangan. Ulardagi alifbo tartibi ham shu yozuv sabab bo'lgan deyish mumkin. Faqatgina chapdan o'ngga yoki o'ngdan chapga qarab xat bitilganda yoki ba'zi xalqlarda harfni ishlatish uchun zarurat bo'lmaganda, ayrim hollarda esa o'zlarida mavjud bo'lgan tovushni ifodalash uchun ulardan yangi harflarni yaratishgan bo'lsa-da, ammo asl o'zak asrlar osha saqlanib kelinmoqda.

¹¹ Robinson A. "The Origins of writing" in David Crowely and Paul Heyer 'Communication in History: Technology, Culture, Society' (fourth edition) Allyn and Bacon Boston. 2003, pp. 34–40.

Adabiyotlar

1. Joseph N. Early History of the Alphabet: an Introduction to West Semitic Epigraphy and Palaeography. Magnes Press – Hebrew University. Jerusalem. 1982. Pp. 78-79.
2. Maxmudov N. Yozuv tarixidan qisqacha ma'lumotnoma. T., 1990. 7-b.
3. McCarter P. K. "The Early Diffusion of the Alphabet." The Biblical Archaeologist 37, No. 3 1974. Pp. 54-68.
4. Millard A. R. The Infancy of the Alphabet. World Archaeology . 1986. pp. 390–398.
5. Robert K. L. The Alphabet Effect: The Impact of the Phonetic Alphabet on the Development of Western Civilization, New York: William Morrow and Company. 1986. Pp.45-67.
6. Robinson A. The Story of Writing: Alphabets, Hieroglyphs & Pictograms, New York: Thames & Hudson Ltd. 1995. P. 170.
7. Robinson A. "The Origins of writing" in David Crowley and Paul Heyer 'Communication in History: Technology, Culture, Society' (fourth edition) Allyn and Bacon Boston. 2003, pp. 34–40.
8. Ullman B.L. "The Origin and Development of the Alphabet," American Journal of Archaeology 31, No. 3. 1927. Pp. 311-328.
9. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры . Тошкент. 2008. С. 5-21.
10. Тайны древних письмен «ПРОГРЕСС» МОСКВА 1979. С. 23-67.